QO'QON UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»
Qo'qon universiteti direktori
_______________ G'. Zaxidov
2024 yil «5» iyul

# QO'QON UNIVERSITETI PROFESSOR-O'QITUVCHILARINING PEDOGOGIK YUKLAMASINI REJALASHTIRISH VA HISOBLASH ME'YORLARINI BELGILASH

# TARTIBI

*Qo'qon universiteti Kengashining 2024 yil 19 iyundagi 4-son majlis Qarori bilan ma'qullangan.*

Qo'qon – 2024 yil

# QO'QON UNIVERSITETI PROFESSOR-O'QITUVCHILARINING PEDOGOGIK YUKLAMASINI REJALASHTIRISH VA HISOBLASH ME'YORLARINI BELGILASH TARTIBI

Ushbu tartib O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga va Qo'qon universiteti (keyingi o'rinlarda Universitet) MChJ ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi qarorlariga muvofiq Universitet professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ustoz-shogird ishlarini belgilash tartibini belgilaydi.

## 1-bob. Umumiy qoidalar

**1.** Qo'qon universiteti professor-o'qituvchilari tarkibi (bundan buyon matnda professor-o'qituvchilar deb yuritiladi) mehnatini me'yorlashtirish, har o'quv yili uchun professor-o'qituvchilar va kafedra mudiri tomonidan tuziladigan va prorektorlar bilan kelishilgan holda Akademik ishlar bo'yicha prorektor (fakultet dekani) tomonidan tasdiqlanadigan o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish-rejalariga asoslanadi.

**2.** Professor-o'qituvchilarning o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish-rejasi tarkibiga o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ustoz-shogird ishlarining turlari kiritiladi. Ish turlari professor-o'qituvchilarning o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish-rejalarida to'liq va aniq aks ettirilishi lozim. Joriy o'quv yili yakunida faqat mazkur o'quv yili davomida amalga oshirilgan ishlar hisobga olinadi.

O'quv yili davomida bajarilgan qo'shimcha ish turlari professor-o'qituvchilarning yillik shaxsiy ish-rejalariga kiritib borilishi mumkin.

**3.** Professor-o'qituvchilarning shaxsiy ish-rejasi tarkibiga kiritiladigan o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ustoz-shogird ishlari:

- to'liq shtatda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar uchun professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida;
- to'liq shtatda bo'lmagan va o'rindosh sifatida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar uchun ularning stavkalariga muvofiq tarzda professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida;
- shuningdek, mehnatga haq to'lashning soatbay shartlari asosida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasi ushbu Tartibga muvofiq shakllantiriladi.

**4.** Xorijiy OTMlardan tashrif buyurgan professor-o'qituvchilar uchun shaxsiy ish-reja Universitet rektori bilan individul tarzda tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq amalga oshiriladi.

**5.** Professor-o'qituvchilarning o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish-rejasining bajarilishi muntazam ravishda kafedra mudiri, har semestr yakunida fakultet dekani va tegishli yo'nalishlar bo'yicha prorektorlar tomonidan nazorat qilib boriladi.

## 2-bob. Professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasini hisoblash

**6.** Professor-o'qituvchilarning o'quv yili bo'yicha shaxsiy ish-rejasiga kiritilgan, o'quv yuklamasi, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ustoz-shogird ishlari quyidagi ilovalarga muvofiq ishlab chiqiladi:

- o'quv yuklamasining soatlardagi hajmi **1-ilova**;
- professor-o'qituvchilarning o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ustoz-shogird ishlarini jami turlari **2-ilova**;
- kafedra yuklamasi shakli **3-ilova**;
- kafedra yuklamasi taqsimoti shakli **4-ilova**;
- kafedra mudiri yillik shaxsiy ish-rejasi shakli **5-ilova**;
- professor-o'qituvchining yillik shaxsiy ish-rejasi shakli **6-ilova**;
- lavozimlar bo'yicha professor-o'qituvchilarning majburiy vazifalari **7-ilova**.

Professor-o'qituvchilarning egallab turgan lavozimlari bo'yicha o'quv yuklamasi hajmi kafedra mudirining taklifiga muvofiq Universitet Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

**7.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi 133-son qarori bilan tasdiqlangan Ijodiy ta'tillar berish tartibi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan normalarga muvofiq olib borilayotgan ilmiy-metodik va ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish maqsadida professor-o'qituvchilarning o'quv ishlari yuklamasi hajmi kafedra yig'ilishining taklifiga asosan Universitet Kengashining qarori bilan o'zgartirilishi mumkin.

**8.** Professor-o'qituvchilarning o'quv (ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya) soatlari hajmi o'rtacha **450 akademik soat**dan kam bo'lmasligi kerak. Kafedraga sohaning yetakchi mutaxassislari jalb etilganda, ushbu o'quv soatlari hajmiga Universitet Kengashi qaroriga muvofiq o'zgartirish kiritish mumkin.

**9.** Qo'qon universitetida ECTS kredit tizimi asosida o'quv jarayoni tashkil etilgan bo'lib 1 kredit – 30 akademik soat (auditoriya 40%gacha, mustaqil ta'lim 60%gacha)ni tashkil etadi. O'qituvchining o'quv ishi turlari bo'yicha pedagogik yuklamasini rejalashtirish asosi etib – auditoriyada o'tilgan dars mashg'ulotlari, ya'ni ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlari soati qabul qilinadi.

**10.** Kafedra shtatlari auditoriyadagi o'quv yuklamasidan kelib chiqib belgilanadi. O'quv yuklamasi bo'yicha hisoblangan soatlar hajmi professor-o'qituvchilarning oylik maoshlarini belgilash uchun asos bo'lmaydi.

**11.** Universitet Kengashi roziligi bilan ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan faol shug'ullanayotgan professor-o'qituvchilarga auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyatlarni ilmiy-tadqiqot ishlari hisobiga amalga oshirishlariga ruxsat beriladi.

**12.** Professor-o'qituvchi o'quv yuklamasi kreditlarda rejalashtiriladi yoki akademik soatlarda, bu holda bir kreditga mos akademik soati to'g'ri kelishi inobatga olinadi.

Professor-o‘qituvchining umumiy yillik yuklamasiga auditoriyadan tashqari o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot ishlari ham kiritiladi, ular kredit (soat)larda rejalashtiriladi.

## 3-bob. Professor-o‘qituvchilarning o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ustoz-shogird ishlarini belgilash

**13.** Professor-o‘qituvchilar faoliyatining o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ustoz-shogird ishlari bo‘yicha ish turlari mazkur Qoidalarning 2-ilovasida nazarda tutilgan Qo‘qon universiteti professor-o‘qituvchilarining o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ustoz-shogird ishlari turlaridan kelib chiqib, professor-o‘qituvchilarning lavozimlariga qo‘yilgan malaka talablari asosida belgilanadi. Belgilangan majburiyatlardan tashqari amalga oshirilgan ishlarni baholash va qo‘shimcha rag‘batlantirish Universitet kengashi tomonidan tasdiqlangan “Professor-o‘qituvchi va xodimlar faoliyatini KPI tizimi asosida qo‘shimcha moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risida nizom”ga muvofiq amalga oshiriladi.

**14.** Professor-o‘qituvchilarning o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ustoz-shogird ishlari hajmi mazkur ish turlarini bajarish zaruriyatidan kelib chiqib, professor-o‘qituvchilarning lavozimlariga qo‘yilgan malaka talablari asosida kafedra mudirining taklifiga muvofiq universitet Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

**15.** Professor-o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik, ijodiy mahoratini uzluksiz oshirib borish, talabalarda chuqur nazariy bilim, amaliy va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish, ilm-fanga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish, ularga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, har tomonlama yetuk mutaxassis tayyorlashni nazarda tutgan holda kafedra mudiri o‘qitishni ilg‘or pedagogik va kompyuter texnologiyalari, yangi avlod o‘quv adabiyotlari asosida tashkil etish hamda o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ustoz-shogird ishlar bo‘yicha aniq topshiriqlarni belgilaydi.

**16.** Shaxsiy ish rejalarni o‘quv yilida bajarmagan professor-o‘qituvchilar bilan ishlash va ularga ko‘riladigan choralar Universitet Kengashi qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi.

## 4-bob. Yakuniy qoida

**17.** Mazkur tartib Qo‘qon universiteti MChJ ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi va universitet Kengashida muhokama etilgan hamda kelishilgan.

1-ilova

**Qo‘qon universiteti professor-o‘qituvchilarining o‘quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt me’yorlari**

| |
|---|
| *1. O‘quv (ma’ruza, amaliy, seminar, yakka va laboratoriya) mashg‘ulotlarini o‘tkazish* |
| –kunduzgi ta'lim shakli uchun ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlar 60 nafargacha bo‘lgan talabalar birlashgan guruhlarda o‘tkaziladi;<br>–alohida potoklar uchun kattalashtirilgan ma’ruza mashg‘ulotlari 120 nafargacha talabalar birlashgan (tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida klinik kafedralarda siklga kelgan) guruhlarda o‘tkaziladi;<br>–mutaxassislik bo‘yicha maxsus fanlaridan amaliy mashg‘ulotlar fanning xususiyatidan kelib chiqib Akademik ishlar bo‘yicha prorektorning ruxsati bilan 25-30 nafar talabalar birlashgan guruhlarda o‘tkaziladi;<br>–kunduzgi ta’lim shakli uchun tibbiy-biologik, klinikagacha bo‘lgan va gigiyenik fanlardan laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘qitish 12-15 nafargacha talaba bo‘lgan kichik guruhlarda o‘tkaziladi;<br>–kunduzgi ta’lim shakli uchun nofilologik yo‘nalishlarga chet (rus) tilini o‘qitish, chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar odatda, 30 nafargacha talaba bo‘lgan kichik guruhlarda o‘tkaziladi;<br>–kunduzgi ta’lim shakli uchun klinik fanlarni o‘qitish, odatda, 8-12 nafargacha talaba bo‘lgan kichik guruhlarda o‘tkaziladi;<br>–masofaviy ta’lim shaklida talabalar soni bir guruh va potok uchun esa 120 nafargacha olinadi;<br>–masofaviy ta’lim shakliga bir potok uchun 3 kreditgacha bo‘lgan fanlarga 15 soat, 6 kreditgacha bo‘lgan fanlarga 30 soat va 7,5 kreditgacha bo‘lgan fanlarga 45 soat auditoriya yuklamasi hisoblanadi. Ajratilgan soatlarning 50% qismi nazariy haftalarda konsultatsiyiaga va qolgan qismi platformaga fan kontentlarini joylash va barcha turdagi topshiriqlarni tekshirishga yo‘naltiriladi;<br>–masofaviy ta’lim shakli uchun video dars yozish va har bir mavzuga taqdimot tayyorlashga soatbay haq to‘lanadi. |
| *2. Yakuniy attestatsiya va bitiruv malakaviy ishi komissiyasida ishtirok* |
| –yakuniy attestatsiya ishida imtihonda bir marta qatnashganlik uchun – 6 soat.<br>–talabalarning bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyasi himoyasi bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasida ishtirok etganda bir nafar talaba uchun — 0,5 soat, bir magistrlik dissertatsiyasi uchun — 0,8 soat. |
| *3. Yakuniy nazoratlarni o‘tkazish* |
| –yakuniy nazoratlarda imtihon oluvchi sifatida ishtirok etish, bir fan uchun bir potok(guruh)ga – 2 soat. |
| *4. Amaliyotga rahbarlik qilish, ularning hisobotlarini tekshirish va baholash* |
| –kunduzgi ta’lim shaklida tahsil oluvchi bakalavrlar uchun har bir talaba uchun – 3 soat.<br>–sirtqi va masofaviy ta’lim shaklida tahsil oluvchi bakalavrlar uchun har bir talaba uchun – 1 soat<br>–magistratura talabalarining ilmiy pedagogik faoliyati va amaliyotiga rahbarlik qilish bir o‘quv yiliga bir talaba uchun – 30 soat.<br>–klinik ordinatorlarning o‘quv va klinik amaliyotiga rahbarlik qilish, bir o‘quv yiliga bitta klinik ordinator uchun – 30 soat. |
| *5. Bitiruv malakaviy ish, magistrlik dissertatsiyalariga rahbarlik qilish* |
| –Bitiruv malakaviy ishiga rahbarlik qilish, bir o‘quv yiliga bir talaba uchun – 25 soat.<br>–Magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbarlik qilish, bir o‘quv yiliga bir talaba uchun – 40 soat.<br>–MD va BMIga ilmiy rahbarlar soatbay asosida ishga qabul qilingan holatlarda kafedradan ilmiy maslahatchi tayinlanadi. Bunda ajratilgan soatlar teng ikkiga bo‘lingan holda rahbarlar o‘rtasida taqsimlanadi. |
| *6. Oliy ta’lim muassasasidagi doktorant va mustaqil izlanuvchiga ilmiy* |

| |
|---|
| *rahbar(maslahatchi)lik qilish* |
| –Bir nafar doktorant uchun bir o'quv yiliga – 100 soat.<br>–Bir nafar mustaqil izlanuvchi uchun bir o'quv yiliga – 50 soat. |
| *7. Ochiq, muammoli, integratsiyalashgan ma'ruzalar va master-klasslarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish* |
| –bir akademik soat ochiq leksiya va master-klass uchun - 5 soat;<br>–ochiq, muammoli, integratsiyalashgan ma'ruza uchun bir o'quv yilida ko'pi bilan - 20 soat<br>–oliy ta'lim muassasasi miqyosida o'tkaziladigan master-klass uchun bir o'quv yiliga ko'pi bilan 20 soat;<br>–xalqaro miqyosida o'tkaziladigan master-klass uchun bir o'quv yiliga ko'pi bilan 40 soat. |
| *8. Malaka oshishirish va qayta tayyorlash kurslarida offlayn o'qish* |
| - qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida offlayn o'qiganlik uchun — haftasiga 36 soat |
| *9. Kafedra mudiri lavozimini bajarish* |
| - Kafedra mudiri lavozimini bajarish uchun – 100 soat |

Yuklamani bajarish asoslari:

- bir akademik soat uchun – 45 minut.
- O'quv mashg'ulotlari o'quv rejaga muvofiq bir akademik soatdan (45 minut) yoki tanafussiz ikki akademik soatdan (80 minut) o'tkaziladi.
- Imtixonlar va attestatsiyalar oldidan konsultatsiyalar uchun belgilanadigan ish hajmi soatbay hisobda aks etadi.
- Umumlashgan ma'ruzalar va maslahatlarning o'tkazilishi yakuniy attestatsiyani o'tkazish jadvalida qayd etiladi.
- O'quv mashg'ulotlarining o'tkazilganligi HEMIS tizimi orqali guruh jurnalida aks ettiriladi.
- Bir o'quv yilida bitta professor-o'qituvchiga BMI bo'yicha 10 nafargacha talaba biriktiriladi. Professor-o'qituvchining bitiruv malakaviy ishiga rahbarlik qilganligi, xulosalar yozganligi oliy ta'lim muassasasi buyrug'i, yozilgan xulosa va ishning himoyaga taqdim etilganligi asosida aniqlanadi.
- A'zolarning yakuniy attestatsiyasi komissiyasidagi ishtiroki oliy ta'lim muassasasi buyrug'i hamda himoya natijalari to'g'risidagi qaydnomalar asosida aniqlanadi.
- Bir YAK yig'ilishida 8 tagacha MD va 12 tagacha BMI himoyasiga ruxsat beriladi.
- Yakuniy attestatsiya komissiyasi tarkibini oldindan aniqlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda, komissiya a'zolariga komissiya o'z ishini tugatgandan so'ng, soatbay haq to'lanadi.
- Professor yoki fan doktori 10 nafargacha, dotsent, fan nomzodi va mutaxassis 6 nafargacha talabaning ilmiy pedagogik faoliyati va amaliyotiga rahbarlikni amalga oshirishi mumkin. Professor, fan doktori, dotsent, fan nomzodi va mutaxassis 4 nafargacha klinik ordinatorning o'quv va klinik amaliyotiga rahbarlikni amalga oshirishi mumkin.
- Magistrantning ilmiy pedagogik faoliyatiga rahbarlik qilganlik talabaning kalendar ish-rejasidagi topshiriqlarni bajarishi bilan aniqlanadi. Amaliyotga rahbarlik qilganlik oliy ta'lim muassasasining amaliyot o'tash bo'yicha buyrug'i, talabaning amaliyot kundaligi va amaliyot uchun baho qo'yilgan tegishli qaydnomalar asosida aniqlanadi.
- Professor yoki fan doktori 8 nafargacha, dotsent, fan nomzodi va mutaxassis 6 nafargacha talabaning magistrlik dissertatsiyasi va stajirovkasiga (ilmiy maslahatchilik) rahbarlikni amalga oshirishi mumkin. Mazkur ish turining bajarilganligi oliy ta'lim muassasasi buyrug'i, talabaning kalendar ish-rejasi va magistrlik dissertatsiyasining himoyaga taqdim etilgani asosida aniqlanadi. Universitet Kengashi qarori bilan yetakchi mutaxassis 4 nafargacha magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbarlik (ilmiy maslahatchilik) qilish mumkin.
- Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qiganligini tasdiqlovchi hujjat asosida aniqlanadi.

2-ilova

**Qo'qon universiteti professor-o'qituvchilarining o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ustoz-shogird ishlarini turlari**

| № | Ish turlari | Ish turlarining bajarilganligini aniqlash |
|---|---|---|
| | **I. O'quv-uslubiy ishlar** | |
| 1. | Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2017-yil 1-martdagi 107-sonli burug'iga asosan, mavjud fan bo'yicha O'UMni nashr etish | Uslubiy Kengash Qarori bilan nashr etilgan ishlanmalar asosida aniqlanadi |
| 2. | Fan bo'yicha yangi ma'ruza matnlari nashr etish | Uslubiy Kengash Qarori bilan nashr etilgan ishlanmalar asosida aniqlanadi |
| 3. | Fan bo'yicha yangi amaliy (keyslar, masala va mashqlar to'plami) va seminar mashg'ulotlari uchun uslubiy ko'rsatma (qo'llanma) nashr etish | Uslubiy Kengash Qarori bilan nashr etilgan ishlanmalar asosida aniqlanadi |
| 4. | Fan bo'yicha yangi laboratoriya mashg'ulotlari uchun uslubiy ko'rsatma (qo'llanma) nashr etish | Uslubiy Kengash Qarori bilan nashr etilgan ishlanmalar asosida aniqlanadi |
| 5. | MD, BMI, YA va malakaviy amaliyotlar uchun uslubiy qo'llanma (ko'rsatma)lar tayyorlash va nashr etish | Uslubiy Kengash Qarori bilan nashr etilgan ishlanmalar asosida aniqlanadi |
| 6. | Darslik, o'quv qo'llanmalar yozish tarjima qilish va qayta nashr etishga tayyorlash | Vazirlikni elektron bazasiga yuklanganligi bilan aniqlanadi |
| 7. | Malaka oshirish kurslari va qayta tayyorlovlarda onlayn yoki muqobil ishtirok etish | Rektor buyrug'i va qo'lga kiritilgan hujjat asosida aniqlanadi |
| 8. | Korxona va tashkilotlarda stajirovka o'tash | Rektor buyrug'i va qo'lga kiritilgan hujjat asosida aniqlanadi |
| 9. | Bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabi, transformatsiya jadvali, o'quv reja, o'quv dasturlarini ishlab chiqish | Joriy o'quv yili uchun tasdiqlangan malaka talabi, transformatsiya jadvali, o'quv reja va dasturlar asosida aniqlanadi |
| 10. | Tarqatma o'quv materiallari, taqdimot slaydlarini tayyorlash | Elektron varianti asosida aniqlanadi |
| 11. | HEMIS tizimi va boshqa platformalarda fan kontentlarini joylashtirish va yo'qlama yuritish | HEMIS tizimi nazorati asosida aniqlanadi |
| 12. | Fanlardan mustaqil ta'limni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma tayyorlash | Uslubiy Kengash Qarori bilan nashr etilgan ishlanmalar asosida aniqlanadi |
| 13. | Fanlardan dastur va sillabuslar ishlab chiqish | Uslubiy Kengash Qarori bilan nashr etilgan ishlanmalar asosida aniqlanadi |
| 14. | Fanlar bo'yicha nazorat savollari (test, masalalar va boshqa), oraliq va yakuniy baholashlar uchun topshiriqlarni ishlab chiqish | Kafedra mudiri xulosasiga ko'ra aniqlanadi |
| | **II. Ilmiy-tadqiqot ishlari** | |
| 15. | Oliy attestatsiya Komissiyasi va 2030 "Uzbekistan Research Online" bazalariga kiritilgan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish | Joriy o'quv yilida tayyorlangan va nashr etilgan ishlar asosida aniqlanadi |
| 16. | Xorijiy yuqori impakt faktorli jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish | Joriy o'quv yilida tayyorlangan va nashr etilgan ishlar asosida aniqlanadi |

| | | |
|---|---|---|
| **17.** | Xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlarda chop etish | |
| **18.** | Monografiya chop etish | Joriy o‘quv yilida tayyorlangan va nashr etilgan ishlar asosida aniqlanadi |
| **19.** | Patent olish | Joriy o‘quv yilida tayyorlangan va nashr etilgan ishlar asosida aniqlanadi |
| **20.** | Scopus, Web of Science bazalariga kiritilgan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish | Joriy o‘quv yilida tayyorlangan va nashr etilgan ishlar asosida aniqlanadi |
| **21.** | Scopus va Web of Science bazalariga kiruvchi konferensiyalarda maqola chop etish | Joriy o‘quv yilida tayyorlangan va nashr etilgan ishlar asosida aniqlanadi |
| **22.** | Iqtibosliklar soni | Joriy o‘quv yilida professor-o‘qituvchining turli bazalardagi iqtibosliklar soni bilan aniqlanadi |
| **23.** | h-indeksi (mavjud holati) | Joriy o‘quv yilida professor-o‘qituvchining turli bazalardagi h-indeksi bilan aniqlanadi |
| **24.** | Mualliflik guvohnomalari olish | Aslini nusxasi bilan aniqlanadi |
| **25.** | Ilmiy yoki uslubiy konferensiya va seminarlar tashkil etish | Ilmiy yoki uslubiy konferensiya va seminarlarning o‘tkazilganligini tasdiqlovchi ma’lumotlar bilan aniqlanadi |
| **26.** | Ilmiy yoki uslubiy Kengashlarda ishtirok etish | Ilmiy yoki usubiy Kengashlarda a’zo bo‘lganligini tasdiqlovchi ma’lumotlar bilan aniqlanadi |
| **III. Ustoz-shogird ishlari** | | |
| **27.** | Talabalarning ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlariga rahbarlik qilish | Universitet buyrug‘i va o‘zaro ishlash natijalari asosida aniqlanadi |
| **28.** | Talabalarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalariga, davlat stipendiyalariga, xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlari, musobaqalariga tayyorlash | Universitet buyrug‘i va o‘zaro ishlash natijalari asosida aniqlanadi |
| **29.** | Sport, madaniy-ma’rifiy va ijodiy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish | Soha prorektori tasdiqlagan ma’lumot va foto lavhalar asosida aniqlanadi |
| **30.** | Oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish | Soha prorektori tasdiqlagan ma’lumot va foto lavhalar asosida aniqlanadi |
| **31.** | Tashkilotlarda ma’ruzalar qilish, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilish, shu jumladan huquqiy targ‘ibot ishlarini amalga oshirish | Soha prorektori tasdiqlagan ma’lumot va foto lavhalar asosida aniqlanadi |
| **32.** | Talabalar uchun master klass va ma’ruzalar tashkil etish | Soha prorektori tasdiqlagan ma’lumot va foto lavhalar asosida aniqlanadi |
| **33.** | To‘garaklarga raxbarlik qilish | Soha prorektori tasdiqlagan ma’lumot va foto lavhalar asosida aniqlanadi |

3-ilova

**"Tasdiqlayman"**
**Qo'qon universiteti direktori**

_______________ ____________
(imzo)

**"____"_______ 20__**

**______________________ kafedrasining 20___/20____- o'quv yili uchun yuklamasi**

| Ish turi / fan | Guruh (potok)lar | Talaba soni | Ta'lim shakli | Auditoriya soatlari | | | Auditoiyadan tashqari soatlar | | | | | | | | | | JY |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Ma'r (100 talik) | Ma'r, amal, sem, lab | JA | YA va BMI komis isht etish | Yakuniy nazorat o'tkazish | Amal rahbar, hisobot teksh va bahol | MD va BMIga rahbar qilish | D, TD, MI rahbar qilish | Ochiq dars va master klasslar o'tkazish | MO, QT | Kaf mud | JAT | | |
| *Kuzgi semestr* | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| .... | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| **Jami** | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| *Bahorgi semestr* | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| .... | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| **Jami** | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| **Hammasi** | | | | | | | | | | | | | | | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| (imzo) | (imzo) | (imzo) | (imzo) |
| **(F.I.Sh.)** | **(F.I.Sh.)** | **(F.I.Sh.)** | **(F.I.Sh.)** |
| Akademik ishlar bo'yicha prorektor | Akademik ishlar departamenti boshlig'i | Fakultet dekani | Kafedra mudiri |

4-ilova

**"Tasdiqlayman"**
**Qo'qon universiteti Akademik ishlar bo'yicha prorektori**

_______________ ____________
(imzo)

**"_____"________ 20__**

**______________________ kafedrasining 20___/20____- o'quv yili uchun yuklama taqsimoti**

| № | F.I.Sh. | Lavozimi | Shtat | Ma'r (100 talik) | Ma'r, amal, sem, lab | JA | YA va BMI komis isht etish | Yakuniy nazorat o'tkazish | Amal rahbar, hisobot teksh va bahol | MD va BMIga rahbar qilish | D, TD, MI rahbar qilish | Ochiq dars va master klasslar o'tkazish | MO, QT | Kaf mud | JAT | Jami |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | ***Asosiy shtatdagilar*** | | | | | | | | |
| ... | ... | | | | | | | | | | | | | | | |
| | **Jami** | | | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | ***Ichki o'rindoshlar*** | | | | | | | | |
| ... | ... | | | | | | | | | | | | | | | |
| | Jami | | | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | ***Tashqi o'rindoshlar*** | | | | | | | | |
| ... | ... | | | | | | | | | | | | | | | |
| | Jami | | | | | | | | | | | | | | | |
| | Hammasi | | | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | ***Soatbay asosidagi yuklama*** | | | | | | | | |
| ... | ... | | | | | | | | | | | | | | | |
| | Jami soatbay | | | | | | | | | | | | | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| (imzo) | (imzo) | (imzo) | (imzo) |
| **(F.I.Sh.)** | **(F.I.Sh.)** | **(F.I.Sh.)** | **(F.I.Sh.)** |
| Akademik ishlar departamenti boshlig'i | Ta'lim sifatini nazorat qilish departamenti | Fakultet dekani | Kafedra mudiri |

5-ilova

**Qo‘qon universiteti kafedra mudirining yillik shaxsiy ish-rejasining namunaviy ko‘rinishi**

**«TASDIQLAYMAN»**
Qo‘qon universiteti
Akademik ishlar bo‘yicha prorektori
____________**J.Kambarov**
“____” ______________ **2024 yil**

**TA’LIM FAKULTETI**

**TA’LIM KAFEDRASI**

mudiri (**1,0 SHTAT BIRLIGI**)

______________________________________**NING**
**(F.I.Sh)**

**2024/2025**-o‘quv yili uchun

# SHAXSIY ISH-REJASI

| | |
|---|---|
| Umumiy o‘quv yuklamasi: | _____ soat |
| Jumladan, | |
| Auditoriya yuklamasi: | _____ soat |
| Kuzgi semestr: | _____ soat |
| Baxorgi semestr: | _____ soat |

Mazkur shaxsiy ish-reja kafedraning 2024 yil ____ ________ kungi ____-sonli yig‘ilishida muhokama qilindi va tasdiqlandi.

Kafedra mudiri: ____________________ (imzo) ____________________ (F.I.Sh)

Fakultet dekani: ____________________ (imzo) ____________________ (F.I.Sh)

**Qo‘qon-2024 yil**

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Iqtisodiyot 18,19-24 I, 60 nafar | | | | | | | | | | | | | |
| BLI va YA komissiyasida ishtirok etish | | | | | | | | | | | | | |
| MDga rahbarlik qilish, 6 nafar | | | | | | | | | | | | | |
| Malakaviy amaliyot 58-22 M, 25 nafar | | | | | | | | | | | | | |
| Kafedra mudirligi | | | | | | | | | | | | | |
| **Jami** | | | | | | | | | | | | | |
| **Amalda** | | | | | | | | | | | | | |
| **Jami reja** | | | | | | | | | | | | | |
| **Jami amalda** | | | | | | | | | | | | | |

# KAFEDRA MUDIRINING O'QUV YUKLAMASI

| Ish yoki fan nomi, guruh, talabalar soni | Ma' ruza (120 talik) | Ma' ruza, amaliy, seminar, laboratoriya | Jami auditoriya | Yakuniy attestatsiya va BMI komissiyasida ishtirok etish | Yakuniy nazorat o' tkazish | Amaliyotga rahbarlik, hisobot tekshirish va baholash | MD va BMIga rahbarlik qilish | D, TD. MI rahbarlik qilish | Ochiq dars va master klasslar o' tkazish | MO, QT | Kafedra mudirligi | Jami auditoriyadan tashqari | Jami |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Kuzgi semestr** | | | | | | | | | | | | | |
| Moliyaviy menejment, 74,75-22 I. 60 nafar | | | | | | | | | | | | | |
| Psixologiya, 54,55-23 I. 50 nafar | | | | | | | | | | | | | |
| Pedagogika, 27,28-25 I. 50 nafar | | | | | | | | | | | | | |
| Kafedra mudirligi | | | | | | | | | | | | | |
| **Jami** | | | | | | | | | | | | | |
| **Amalda** | | | | | | | | | | | | | |
| **Bahorgi semestr** | | | | | | | | | | | | | |

# KAFEDRA MUDIRINING O‘QUV-USLUBIY, ILMIY-TADQIQOT VA USTOZ-SHOGIRD ISHLARI TURLARI

| № | Bajariladigan ishlar turlari va mazmuni | Ishni bajarish muddati va soni | | Ishni topshirish shakli |
|---|---|---|---|---|
| | | Reja | Amalda | |
| **I. O‘QUV-USLUBIY ISHLAR** | | | | |
| 1. | Moliyaviy menejment, Psixologiya, Pedagogika fanlaridan O‘UM tayyorlash va nashr etish | 31.08.2024 / 3 ta | | Bosma va elektron |
| 2. | Moliyaviy menejment, Psixologiya, Pedagogika fanlaridan yangi ma’ruzalar matni tayyorlash va nashr etish | 15.11.2024 / 1,5 | | Bosma va elektron |
| 3. | Moliyaviy menejment, Psixologiya, Pedagogika fanlaridan amaliy (keyslar, masala va mashqlar to‘plami) mashg‘ulotlari uchun uslubiy qo‘llanma tayyorlash va nashr etish | 15.10.2024 / 3 ta | | Bosma va elektron |
| 4. | Fizika fanidan laboratoriya mashg‘ulotlari uchun uslubiy ko‘rsatma tayyorlash va nashr etish | 15.10.2024 / 3 ta | | Bosma va elektron |
| 5. | Malakaviy amaliyotni o‘tash bo‘yicha uslubiy qo‘llanma tayyorlash | 28.08.2024 / 3 ta | | Bosma va elektron |
| 6. | Darslik, o‘quv qo‘llanmalar yozish tarjima qilish va qayta nashr etishga tayyorlash | 15.10.2024 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 7. | Malaka oshirish kursida muqobil ishtirok etish | 15.10.2024 / 3 ta | | Bosma va elektron |
| 8. | 42 ta maktabda stajirovka o‘tash | 15.10.2024 | | Bosma va elektron |
| 9. | Menejment ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talabi, transformatsiya jadvali, o‘quv reja, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish | 28.08.2024 | | Bosma va elektron |
| 10. | Moliyaviy menejment va iqtisodiyot fanlaridan tarqatma o‘quv materiallari, taqdimot slaydlarini tayyorlash | 15.10.2024 | | Bosma va elektron |
| 11. | Moliyaviy menejment, Psixologiya, Pedagogika fanlaridan HEMIS platformasida fan kontentlarini joylashtirish va yo‘qlama yuritish | O‘quv yili davomida / 3 ta | | Elektron |
| 12. | Moliyaviy menejment, Psixologiya, Pedagogika fanlaridan mustaqil ta’limni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma nashr etish | O‘quv yili davomida / 3 ta | | Bosma va elektron |
| 13. | Moliyaviy menejment, Psixologiya, Pedagogika fanlaridan sillabus tayyorlash | 28.08.2024 / 5 ta | | Bosma va elektron |
| 14. | Moliyaviy menejment, Psixologiya, Pedagogika fanlaridan nazorat savollarini ishlab chiqish | O‘quv yili davomida / 3 ta | | Bosma va elektron |
| **II. ILMIY-TADQIQOT ISHLARI** | | | | |
| 15. | OAK tasarrufidagi va 2030 Uzbekistan Research Online bazalariga kiritilgan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish | 30.06.2025 / 2 ta | | Bosma va elektron |
| 16. | Xorijiy yuqori impakt faktorli jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish | 30.06.2025 / 2 ta | | Bosma va elektron |
| 17. | Xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlarda tezis chop etish | 30.04.2025 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 18. | Monografiya chop etish | 30.05.2025 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 19. | Patent olish | 30.05.2025 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 20. | Scopus bazasiga kiruvchi jurnallarda maqola chop etish | 30.04.2025 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 21. | Scopus bazasiga kiruvchi konferensiyalarda maqola chop etish | 30.04.2025 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 22. | Iqtibosliklar sonini oshirish | 30.04.2025 / 20 ta | | Bosma va elektron |
| 23. | h-indeksini oshirish | 30.04.2025 / 3 | | Bosma va elektron |
| 24. | Mualliflik guvohnomasi olish (DGU) | 30.05.2025 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 25. | Uslubiy seminar tashkil etish | O‘quv yili davomida / 1 ta | | Bosma va elektron |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 26. | Ilmiy Kengashda ishtirok etish | O'quv yili davomida / 1 ta | | Bosma va elektron |
| **III. "USTOZ-SHOGIRD" ISHLARI** | | | | |
| 27. | Talaba ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik | O'quv yili davomida / 2 ta | | Bosma va elektron |
| 28. | Talabalarni davlat stipendiyalariga tayyorlash | O'quv yili davomida / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 29. | Futbol bo'yicha sport tadbirini tashkil etish | 30.05.2025 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 30. | Qo'qon universitetiga kirish uchun o'quvchi-yoshlar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish | 30.05.2025 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 31. | Gazetaga ommabop maqola yozish | 30.05.2025 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 32. | Talabalar uchun master klass tashkil etish | 30.05.2025 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 33. | To'garaklarga raxbarlik qilish | O'quv yili davomida / 1 ta | | Bosma va elektron |

## REJADAN TASHQARI AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

| **№** | **Bajarilgan ishlar turlari va mazmuni** | **Ish bajarilgan muddat** | | **Ishni topshirish shakli** | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Reja | Amalda | | | |
| ... | | | | | | |

Fakultet dekanining xulosasi:

_______________________________________________

_______________________________________________

_______________________________________________

_______________________________

Kafedra mudiri: ____________ (imzo) ____________ (F.I.Sh)

Fakultet dekan: ____________ (imzo) ____________ (F.I.Sh)

Akademik ishlar bo'yicha prorektor: ____________ (imzo) ____________ (F.I.Sh)

6-Ilova

**Qo'qon universiteti kafedra o'qituvchisining yillik shaxsiy ish-rejasining namunaviy ko'rinishi**

**«TASDIQLAYMAN»**

Qo'qon universiteti
Ta'lim fakulteti dekani

____________**M.Najmiddinov**
"____" _____________ **2024 yil**

**TA'LIM FAKULTETI**

**TA'LIM KAFEDRASI**

__________________ **1,0 SHTAT BIRLIGI)**
(lavozimi)

__________________________________________**NING**
**(F.I.Sh)**

**2024/2025**-o'quv yili uchun

# SHAXSIY ISH-REJASI

| | |
|---|---|
| Umumiy o'quv yuklamasi: | _____ soat |
| Jumladan, | |
| Auditoriya yuklamasi: | _____ soat |
| Kuzgi semestr: | _____ soat |
| Bahorgi semestr: | _____ soat |

Mazkur shaxsiy ish-reja kafedraning 2024 yil ____ ________ kungi ____-sonli yig'ilishida muhokama qilindi va tasdiqlandi.

O'qituvchi: __________________ (imzo) __________________ (F.I.Sh)

Kafedra mudiri: __________________ (imzo) __________________ (F.I.Sh)

**Qo'qon-2024 yil**

# PROFESSOR-O‘QITUVCHINING O‘QUV YUKLAMASI

| Ish yoki fan nomi, guruh, talabalar soni | Ma’ ruza (120 talik) | Ma` ruza, amaliy, seminar, laboratoriya | Jami auditoriya | Yakuniy attestatsiya va BMI komissiyasida ishtirok etish | Yakuniy nazorat o‘ tkazish | Amaliyotga rahbarlik, hisobot tekshirish va baholash | MD va BMIga rahbarlik qilish | D. TD. MI rahbarlik qilish | Ochiq dars va master klasslar o‘ tkazish | MO, QT | Jami auditoriyadan tashqari | Jami |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Kuzgi semestr** | | | | | | | | | | | | |
| Moliyaviy menejment, 74,75-22 I, 50 nafar | | | | | | | | | | | | |
| Psixologiya, 54,55-23 I, 50 nafar | | | | | | | | | | | | |
| Pedagogika. 27,28-25 I, 50 nafar | | | | | | | | | | | | |
| Ochiq, muammoli, integratsiyalashgan ma'ruzalar va master-klasslarga tayyorgarlik ko'rish | | | | | | | | | | | | |
| **Jami** | | | | | | | | | | | | |
| **Amalda** | | | | | | | | | | | | |
| **Bahorgi semestr** | | | | | | | | | | | | |
| Iqtisodiyot 18,19-24 I, 60 nafar | | | | | | | | | | | | |
| BLI va YA komissiyasida ishtirok etish | | | | | | | | | | | | |
| MDga rahbarlik qilish. 6 nafar | | | | | | | | | | | | |
| Malakaviy amaliyot 58-22 M. 25 nafar | | | | | | | | | | | | |
| **Jami** | | | | | | | | | | | | |
| **Amalda** | | | | | | | | | | | | |
| **Jami reja** | | | | | | | | | | | | |
| **Jami amalda** | | | | | | | | | | | | |

# PROFESSOR-O'QITUVCHINING O'QUV-USLUBIY, ILMIY-TADQIQOT VA USTOZ-SHOGIRD ISHLARI TURLARI

| № | Bajariladigan ishlar turlari va mazmuni | Ishni bajarish muddati va soni | | Ishni topshirish shakli |
|---|---|---|---|---|
| | | Reja | Amalda | |
| | **I. O'QUV-USLUBIY ISHLAR** | | | |
| 1. | Moliyaviy menejment, Psixologiya, Pedagogika fanlaridan O'UM tayyorlash va nashr etish | 31.08.2024 / 2 ta | | Bosma va elektron |
| 2. | Moliyaviy menejment, Psixologiya, Pedagogika fanlaridan yangi ma'ruzalar matni tayyorlash va nashr etish | 15.11.2024 / 1.5 | | Bosma va elektron |
| 3. | Moliyaviy menejment, Psixologiya, Pedagogika fanlaridan amaliy (keyslar, masala va mashqlar to'plami) mashg'ulotlari uchun uslubiy qo'llanma tayyorlash va nashr etish | 15.10.2024 / 3 ta | | Bosma va elektron |
| 4. | Fizika fanidan laboratoriya mashg'ulotlari uchun uslubiy ko'rsatma tayyorlash va nashr etish | 15.10.2024 / 3 ta | | Bosma va elektron |
| 5. | Malakaviy amaliyotni o'tash bo'yicha uslubiy qo'llanma tayyorlash | 28.08.2024 / 3 ta | | Bosma va elektron |
| 6. | Darslik, o'quv qo'llanmalar yozish tarjima qilish va qayta nashr etishga tayyorlash | 15.10.2024 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 7. | Malaka oshirish kursida muqobil ishtirok etish | 15.10.2024 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 8. | 42 ta maktabda stajirovka o'tash | 15.10.2024 | | Bosma va elektron |
| 9. | Moliyaviy menejment va iqtisodiyot fanlaridan tarqatma o'quv materiallari, taqdimot slaydlarini tayyorlash | 15.10.2024 | | Bosma va elektron |
| 10. | Moliyaviy menejment, Psixologiya, Pedagogika fanlaridan HEMIS platformasida fan kontentlarini joylashtirish va yo'qlama yuritish | O'quv yili davomida / 3 ta | | Elektron |
| 11. | Moliyaviy menejment, Psixologiya, Pedagogika fanlaridan mustaqil ta'limni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma nashr etish | O'quv yili davomida / 3 ta | | Bosma va elektron |
| 12. | Moliyaviy menejment, Psixologiya, Pedagogika fanlaridan sillabus tayyorlash | 28.08.2024 / 5 ta | | Bosma va elektron |
| 13. | Moliyaviy menejment, Psixologiya, Pedagogika fanlaridan nazorat savollarini ishlab chiqish | O'quv yili davomida / 3 ta | | Bosma va elektron |
| | **II. ILMIY-TADQIQOT ISHLARI** | | | |
| 14. | OAK tasarrufidagi va 2030 "Uzbekistan Research Online" bazalariga kiritilgan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish | 30.06.2025 / 2 ta | | Bosma va elektron |
| 15. | Xorijiy yuqori impakt faktorli jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish | 30.06.2025 / 2 ta | | Bosma va elektron |
| 16. | Xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlarda tezis chop etish | 30.04.2025 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 17. | Monografiya chop etish | 30.05.2025 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 18. | Patent olish | 30.05.2025 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 19. | Scopus bazasiga kiruvchi jurnallarda maqola chop etish | 30.04.2025 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 20. | Scopus bazasiga kiruvchi konferensiyalarda maqola chop etish | 30.04.2025 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 21. | Iqtibosliklar sonini oshirish | 30.04.2025 / 20 ta | | Bosma va elektron |
| 22. | h-indeksini oshirish | 30.04.2025 / 3 | | Bosma va elektron |
| 23. | Mualliflik guvohnomasi olish (DGU) | 30.05.2025 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 24. | Uslubiy seminar tashkil etish | O'quv yili davomida / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 25. | Ilmiy Kengashda ishtirok etish | O'quv yili davomida / | | Bosma va elektron |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 1 ta | | |
| **III. "USTOZ-SHOGIRD" ISHLARI** | | | | |
| 26. | Talaba ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik | O'quv yili davomida / 2 ta | | Bosma va elektron |
| 27. | Talabalarni davlat stipendiyalariga tayyorlash | O'quv yili davomida / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 28. | Futbol bo'yicha sport tadbirini tashkil etish | 30.05.2025 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 29. | Qo'qon universitetiga kirish uchun o'quvchi-yoshlar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish | 30.05.2025 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 30. | Gazetaga ommabop maqola yozish | 30.05.2025 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 31. | Talabalar uchun master klass tashkil etish | 30.05.2025 / 1 ta | | Bosma va elektron |
| 32. | To'garaklarga raxbarlik qilish | O'quv yili davomida / 1 ta | | Bosma va elektron |

# REJADAN TASHQARI AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

| № | Bajarilgan ishlar turlari va mazmuni | Ish bajarilgan muddat | | Ishni topshirish shakli |
|---|---|---|---|---|
| | | Reja | Amalda | |
| ... | | | | |

Kafedra mudirining xulosasi:

____________________________________________

____________________________________________

____________________________________________

______________________________

Professor-o'qituvchi: ____________ (imzo) ____________ (F.I.Sh)

Kafedra mudiri: ____________ (imzo) ____________ (F.I.Sh)

Fakultet dekani: ____________ (imzo) ____________ (F.I.Sh)

## LAVOZIMLAR BO‘YICHA PROFESSOR-O‘QITUVCHILARNING MAJBURIY VAZIFALARI

<table>
<tr><th>№</th><th>Ish turlari</th><th colspan="2">Kafedra mudiri</th><th colspan="2">Professor</th><th colspan="2">Dotsent</th><th colspan="2">Katta o‘qituvchi</th><th colspan="2">Assistant / o‘qituvchi</th></tr>
<tr><td colspan="12">I. O‘quv-uslubiy ishlar</td></tr>
<tr><td>1.</td><td>Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2017-yil 1-martdagi 107-sonli burug‘iga asosan, mavjud fan bo‘yicha O‘UMni nashr etish</td><td>1-3</td><td rowspan="6">6</td><td>1-3</td><td rowspan="6">4,5</td><td>1-3</td><td rowspan="6">4</td><td>1-3</td><td rowspan="6">3</td><td>1-3</td><td rowspan="6">3</td></tr>
<tr><td>2.</td><td>Fan bo‘yicha yangi ma’ruza matnlari nashr etish</td><td>1-3</td><td>1-3</td><td>1-3</td><td>1-3</td><td>1-3</td></tr>
<tr><td>3.</td><td>Fan bo‘yicha yangi amaliy (keyslar, masala va mashqlar to‘plami) va seminar mashg‘ulotlari uchun uslubiy ko‘rsatma (qo‘llanma) nashr etish</td><td rowspan="2">1-3</td><td rowspan="2">1-3</td><td rowspan="2">1-3</td><td rowspan="2">1-3</td><td rowspan="2">1-3</td></tr>
<tr><td>4.</td><td>Fan bo‘yicha yangi laboratoriya mashg‘ulotlari uchun uslubiy ko‘rsatma (qo‘llanma) nashr etish</td></tr>
<tr><td>5.</td><td>MD, BMI, YAA va malakaviy amaliyotlar uchun uslubiy qo‘llanma (ko‘rsatma)lar tayyorlash va nashr etish</td><td>1-5</td><td>1-3</td><td>1-2</td><td>x</td><td>x</td></tr>
<tr><td>6.</td><td>Darslik, o‘quv qo‘llanmalar yozish tarjima qilish va qayta nashr etishga tayyorlash</td><td>0,5</td><td>0,5</td><td>0,5</td><td>0,5</td><td>0,5</td></tr>
<tr><td>7.</td><td>Malaka oshirish kurslari va qayta tayyorlovlarda onlayn yoki muqobil ishtirok etish</td><td colspan="2">x</td><td colspan="2">x</td><td>x</td><td>x</td><td>x</td><td>x</td><td colspan="2" rowspan="2">1</td></tr>
<tr><td>8.</td><td>Korxona va tashkilotlarda stajirovka o‘tash</td><td colspan="2">x</td><td colspan="2">x</td><td>x</td><td>x</td><td>x</td><td>x</td></tr>
<tr><td>9.</td><td>Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talabi, transformatsiya jadvali, o‘quv reja, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish</td><td colspan="2">Barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun</td><td colspan="2">x</td><td colspan="2">x</td><td colspan="2">x</td><td colspan="2">x</td></tr>
<tr><td>10.</td><td>Tarqatma o‘quv materiallari, taqdimot slaydlarini tayyorlash</td><td colspan="10">Barcha fan professor-o‘qituvchilari uchun majburiy</td></tr>
<tr><td>11.</td><td>HEMIS tizimi va boshqa platformalarda fan kontentlarini joylashtirish va yo‘qlama yuritish</td><td colspan="10">Barcha fan professor-o‘qituvchilari uchun majburiy</td></tr>
<tr><td>12.</td><td>Fanlardan mustaqil ta’limni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma tayyorlash</td><td colspan="10">Barcha fan professor-o‘qituvchilari uchun majburiy</td></tr>
<tr><td>13.</td><td>Fanlardan dastur va sillabuslar ishlab chiqish</td><td colspan="10">Barcha fan professor-o‘qituvchilari uchun majburiy</td></tr>
<tr><td>14.</td><td>Fanlar bo‘yicha nazorat savollari (test, masalalar</td><td colspan="10">Barcha fan professor-o‘qituvchilari uchun majburiy</td></tr>
</table>

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | va boshqa), oraliq va yakuniy baholashlar uchun topshiriqlarni ishlab chiqish | | | | | | | | | | |
| **II. Ilmiy-tadqiqot ishlari** | | | | | | | | | | | |
| **15.** | Oliy attestatsiya Komissiyasi va 2030 "Uzbekistan Research Online" bazalariga kiritilgan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish | 1-3 | 5 | 1-3 | 6 | 1-3 | 5 | 1-3 | 5 | 1-3 | 5 |
| **16.** | Xorijiy yuqori impakt faktorli jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish | 1-3 | | 1-3 | | 1-3 | | 1-3 | | 1-3 | |
| **17.** | Xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlarda tezis chop etish | 1-3 | | 1-3 | | 1-3 | | 1-3 | | 1-3 | |
| **18.** | Monografiya chop etish | 1 | | 1 | | 1 | | 1 | | 1 | |
| **19.** | Patent olish | 1 | | 1 | | 1 | | 1 | | 1 | |
| **20.** | Scopus, Web of Science bazalariga kiritilgan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish* | 0,5 | | 0,5 | | 0,5 | | 0,25 | | 0,25 | |
| **21.** | Scopus ва Web of Science bazalariga kiruvchi konferensiyalarda maqola chop etish | | | | | | | | | | |
| **22.** | Iqtibosliklar soni | 10 | | 20 | | 20 | | 10 | | 10 | |
| **23.** | h-indeksi (mavjud holati) | 3 | | 5 | | 5 | | 3 | | 3 | |
| **24.** | Mualliflik guvohnomalari olish | 0,5 | | 0,5 | | 0,5 | | 0,5 | | 0,5 | |
| **25.** | Ilmiy-uslubiy konferensiya yoki seminarlar tashkil etish | 1-3 | 3 | 1-4 | 4 | 1-3 | 3 | 1-3 | 3 | x | |
| **26.** | Илмий ёки услубий Кенгашларда иштирок этиш | 1-3 | | 1-4 | | 1-3 | | 1-3 | | x | |
| **III. Ustoz-shogird ishlari** | | | | | | | | | | | |
| **27.** | Talabalarning ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlariga rahbarlik qilish | 1-3 | 3 | 1-3 | 3 | 1-3 | 3 | 1-3 | 2 | 1-3 | 2 |
| **28.** | Talabalarni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalariga, davlat stipendiyalariga, xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlari, musobaqalariga tayyorlash | 1-3 | | 1-3 | | 1-3 | | 1-3 | | 1-3 | |
| **29.** | Sport, madaniy-ma'rifiy va ijodiy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish | 1-3 | 3 | 1-3 | 3 | 1-3 | 3 | 1-3 | 3 | 1-3 | 3 |

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **30.** | Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun o'quvchi-yoshlar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish | 1-3 | | 1-3 | | 1-3 | | 1-3 | | 1-3 | |
| **31.** | Tashkilotlarda ma'ruzalar qilish, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilish, shu jumladan huquqiy targ'ibot ishlarini amalga oshirish | 1-3 | | 1-3 | | 1-3 | | 1-3 | | 1-3 | |
| **32.** | Talabalar uchun master klass va ma'ruzalar tashkil etish | 1-3 | | 1-3 | | 1-3 | | 1-3 | | 1-3 | |
| **33.** | To'garaklarga raxbarlik qilish | 3 | | 3 | | 3 | | 3 | | 3 | |

Izoh:

1. Rejalashtirilayotgan uslubiy qo'llanmalar fan o'tiladigan o'quv semestrining boshlanish oyiga SHIRga kiritib rejalashtirilishi lozim.
2. Universitet reytingini oshirishga xizmat qiladigan hamda SHIRdan ortiqcha bajarilgan ishlar Universitet rektorning tavsiyasi qaroriga ko'ra moddiy rag'batlantiriladi.
3. x-belgisi qo'yilgan kataklardagi topshiriqlar professor-o'qituvchilar tomonidan ixtiyoriy bajarilishi mumkin.
4. *Scopus, Web of Science bazalariga kiritilgan jurnal va konferensiyalarda maqolalar chop etish alohida tizim bo'yicha rag'batlantiriladi.